



## NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH MEXANIZMI

**Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tel: +998 {91} 583 00 53

Email: nigorasayfullayeva05@gmail.com

**Azimova Tamara Abrorovna<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tel: +998 {88} 865 66 68

Email: Azimova0113@gmail.com

**Shokirov Humoyiddin Baxriddin o'g'li<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tel: +998 {99} 944 38 53

Email: shokirovhumoyiddin@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7559658>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 22<sup>th</sup> January 2023

Online: 23<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Iqtisod, narx, narx va muvozanat.*

### ABSTRACT

*Bu maqolada narx haqida umumiy tushunchalar, narxning funksiyalari, va muvozanat narxi haqida ma'lumot berilgan*

Hozirgi bir shiddatli zamonda yashar ekanmiz, u o'z kuchini albatta iqtisodiyot orqali namoyon qiladi. Insonlarni turmush tarzi ham shakl shubhasiz narx navoga bog'liqdir. Shu o'rinda biz narxga to'xtaladigan bo'lsak bunda albatta ko'plab jarayonlar nazar tashlashimizga to'ri keladi. Ya'ni u hoh davlat bo'lsin yoki jamiyat. Narxning tushushi yoki ko'tarilishi albatta sotuvchi va xaridorga bog'liq masaladir. Shu o'rinda biz narxga haqida umumiy tushuncha olishdan oldin u nima ekanligini haqida bilib olsak.

Narx- bozor mexanizmining kerakli tarkibiy unsurlaridan hisoblanadi. U o'zining vazifalari bilan barqaror iqtisodiyotning shakl topishi shuningdek samarali amal topishiga, bozor muvozanatining ta'minlanishiga, milliy daromadning iqtisodiyot turlicha tarmoq shu bilan birga sohalari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari orqali bo'linishiga, aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishga shart sharoit yaratib beradi. Shu bilan birgalikda, u ishlab chiqaruvchilarni mukofotlanib, sog'lom raqobat muhitining tug'ilishiga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek narx haqida olimlar ham o'z fikrlarini berib o'tganlar. misol uchun Iqtisodchi olimlar narx tushunchasiga va uning iqtisodiy holatini yoritib berishga ikki xil qaraydilar: ularning bir guruhi klassiklar, shuningdek ikkinchi guruhi neoklassiklar deb nomlanadi. Klassik narx haqida, uning mazmun-mohiyatini ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qarab tushuntirishga xarakat qilganlar. Ularning o'ylashicha, narx ishlab chiqarish omillari, birinchidan, mehnat omili orqali bog'liqdir, «Narx— tovar qiymatining puldagi ko'rinishi» deb aytishgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, ular narxning muhim asosini qiymat o'z ichiga oladi deb qaraydilar. Har qanday qiymat mehnat bilan yaratiladi, deb o'z fikrlarini isbotlaganlar.

Shu bilan birgalikda biz narxning vazifalariga ham qaraydigan bo'lsak u o'z ichiga 5 ta

vazifani oladi.

1) Muvozanatlikni ta'minlash vazifasi. Bu orqali narx bozorida talab bilan taklifning hajmi va tarkibida ta'sir ko'rsatish bilan ularni muvozanat holatiga olib keladi.

2) Qiymat va naflilikni o'lchash vazifasi. Narx qiymat va naflilikning puldagi holati deb nomlaymiz, chunki sarflangan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foyda yoki zarar) narxlar hisobida hisob-kitob olib boriladi. Ishlab chiqarish va uning natijalaridagi natural ko'rsatkichlari ham bor (tonna, kg, m<sup>2</sup>, m<sup>3</sup> kvt-soat va hokazo). Shu ko'rsatkichlarni bu ko'rinishicha taqqoslab jami ko'rsatkichga keltirish mumkin bo'lmaydi. Hamma natural ko'rsatkichlarning barcha o'lchovi ularning pulda ko'rsatilgan narxidir. Hisob-kitob bilan joriy va qiyosiy narxlar amalga oshiriladi. Joriy narxlar amaldagi narxlar hisoblanib, ular orqali yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblanadi. Qiyosiy narxlarda ma'lum yil asos qilib olinib (bazis yil) ishlab chiqarishning natijalari shu narxda amalga oshiriladi va boshqa yillar bilan taqqoslanadi.

3) Tartibga solish vazifasi. Bozor ko'rinishi (kon'yunkturasi) talab va taklif shuningdek ularning nisbatiga bog'liqdir. Talabning ko'payishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishi, undan tashqari hol esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni kerakligini bildiradi. Narx tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ularning daromadlari bilan ta'sir ko'rsatadi. Muayyan ishlab chiqarish chiqimlari saqlangan holda narx baland bo'lsa foyda miqdori oshadi, narx tushsa, foyda kamayadi va ayniqsa ishlab chiqaruvchilar foyda ko'rmasligi yani zarar ko'rishi ham ehtimoldan holi emas. Bu ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Narx oshsa ishlab chiqarish kengayadi. Boshqa kapitallar ham shuningdek daromad baland bo'lgan soha va tarmoqlarga quyulib kela boshlaydi. Xullas, narx ishlab chiqarishni tartibga soladi, uni o'zgartirib turadi va rivojini ta'minlaydi.

4) Raqobat vositasi vazifasi. Narx raqobat kurashining eng kerak bo'lgan vositasi sanalanadi. Ishlab chiqaruvchilar o'z raqiblari ustidan g'alaba qozonish uchun narxni tushurish usulidan foydalanishlari mumkin. Demak, narxni o'zgartirib turish usuli raqobatdakengfoydalaniladi.

5) Ijtimoiy himoya vazifasi. Narx jamiyatning oz miqdorda daromadga ega bo'luvchi ba'zi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni ham o'z bo'yniga oladi. Narxning bu vazifasi tovar (xizmat)lar ijtimoiy dotatsiyalashgan narxlar orqali sotilganda qilinadi. Bunda ular hukumat byudjeti va turlicha hayriya mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar orqali biz narxning vazifasi haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Hozirgi vaqtda respublikamiz iqtisodiyotida amalda bo'lib turgan hamma narx turlari narx tizimini o'z ichiga oladi. Narx tizimi va ularning ba'zi turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha tavsiflab chiqamiz.

Ulgurji (ko'tara) narxlar-ishlab chiqaruvchilar o'rtasida keng foydalaniladi. Bunda bu jarayonda katta tovarlar asosiy rol o'ynaydi va narx kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Shartnomaviy narxlar-bunday narxlar o'zaro ikki tomomlana kelishilgan holda tuziladi ya'ni sotuvchi va haridor o'rtasida va ozroq muddatda amal qiladi. Agar qachon bo'lsa ham narxni o'zgartirish kerak bo'lsa u faqatgina ikki tomonning roziligi bilan bo'ladi, bu jarayon bir kishi bilan amalga oshmaydi. Bunday narxlar milliy va shuningdek jahon bozorlarida ishlatiladi.

Chakana narx— iste'mol tovarlarini bevosita xaridorga sotish narxi.

Chegaralangan narx-bunday narxlarning baland va past chegarasi belgilangan bo'lib, u davlat orqali amalga oshiriladi. Ularning ba'zilari limitlangan yoki bo'lmasa imtiyozli narxlar deb aytiladi.

Dotatsiyalangan narx-bunday narxlar davlat tonidan qo'yiladi ya'ni maxsus arzonlashtirilgan tarzda. Bundan maqsad kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarni, ishsiz, kam daromadli va nogironlarga iqtisodiy tomondan yordam berish orqali amalga oshadi. Shuningdek davlat bu orqali inflatsiyani kelib chiqmasligi uchun ham u orqali tartibga solib turadi.

Demping narx-buni biz bir so'z bilan aytganda bozorda o'z o'rnini egallash desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni bu narx bozordagi raqibini siqib chiqarish va bozorda o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lish uchun qo'llaniladigan jarayondir.

Nufuzli narx- Firma narx qo'yganda tovar sotilishini qisqartirmagan holda baland narx hisobiga foyda olish.

Erkin bozor narxlar— bu narxlar talab va taklif asosida paydo bo'lib keladigan bozor narxlaridir. Bu narxlar ayni vaqtdagi zamonaviy, madaniylashgan bozor holatini vujudga keltirishda, bozor munosabatlarining hamma ishtirokchilari mafaatlarni eng maqbul holda uygulashtirishga imkon etadigan narxlar sanaladi

Xududiy, milliy va xalqaro narxlar — xududiy narx deb faqat ma'lum bir xududiy bozorga xos bo'lgan bozor qo'lamini o'z ichiga olgan xolda o'sha xudud doirasidagi omillar ta'sir ostida shakllanadigan narxlarga deyiladi.

Milliy bozor narxi — bu ma'lum bir mamlakat xususiyatlarini xisobga olgan xolda shakllangan va faqat shu mamlakat ichidagi ijtimoiy chiqimlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafililigini, uning qanchalik qadrlanishini o'z ichiga olgan xolda shakllanadi.

Jahon narxi — bu muayyan tovarga ketgan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon andozasi talabiga mos kelish darajasini hamda xalqaro bozordagi talab va taklifni hisobga olgan xolda shakllanadi.

Narx diapazoni — bu narxlar oralig'ini puldagi ko'rinishi bo'lib uning quyi, o'rta va baland chegaralari bor bo'ladi. Narx diapazoni qanchalik katta bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Narx pariteti — bu tushuncha iqtisodiyot nazariyasida narxlar nisbati deb ham yuritiladi. iqtisodiy jarayonlar xilma-xil bo'lsada, ular bir birlari bilan chambarchas bog'liq xolda sodir bo'ladi va rivojlanadi. Bu jarayonlar va ularning oxir – oqibat natijalari narxlar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, ma'lum bir maxsulot ishlab chiqarish uchun ketgan boshqa maxsulotlarning xarajatlari eng so'nggi maxsulot xarajatlarini shakllantiradi. Shuning uchun barcha ketgan maxsulotlar narxining o'zgarishi butun narxlar nisbatini o'zgartirish mumkin va buni aniqlashda narx pariteti tushunchasidan foydalaniladi.

Narx o'z ichiga bir nechta funksiyalarni ham oladi. Narxning funksiyasi 4 ta.

1} Hisob-kitobni amalga oshirish-turli xil majburiyatlarni amalga oshirishda hisob-kitobishlari vazifasini bajaradi.

2} Qiymatli o'lchash- tovarni ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, olingan natijalar va uning nafililigi narx yordamida hisobga olinadi,

3} Muvozanatni ta'minlash-bunda narx talab va taklifga ta'sir ko'rsatish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi

4}Rag'batlantirish vazifasi narxning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga ega.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki narxlarning turi funksiyalari va boshqa jihatlari turli tuman bo'lishiga qaramasdan u avvalo jamiyat va davlat faravonligi uchun xizmat qiladi. Yuqorida aytganimizdek ba'zi jarayonlarda iqtisodiyotga davlat aralashmasligi kerak bo'lsada u

aralshadi va ba'zi jarayonlarda u kerak va zarur .Har doim narx masalasida o'rta hol aholi uchun dehqon ishlab chiqargan mahsulot eng qulayi hisoblanadi. Shu tufayli men o'z xulosamda shunday taklif bilan chiqmoqchimaki ya'ni biz qachonki u hoh o'rta hol yoki yuqori tabaqa bo'lsin biz narx navoda vazifalar bilan birgalikda qishloq xo'jaligiga ham e'tibor qaratishimiz joiz hisoblanadi. Bu taklif oziq ovqatda qo'l kelsa , kiyim kechakda o'zmizning davlatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot eng yaxshisi bo'lib hizmat qilishi lozim.Qachonki davlat importdan ko'ra eksportni ko'paytirsa u o'z iqtisodida va boshqa jihatlarda ulkan ishni amalga oshiradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.Ruzmetov, B.A.Ibragimov, Sh.B.Ruzmetov G.O'.Qurbanbayeva 'Iqtisodiyot nazariyasi' 107-112 betlar, 2016-yil.
2. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: «Sharq», 2006.
3. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-kitob: Oliy o'quv yurtlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. - T.: «Sharq», 2003.
4. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2002.
5. Shodmonov Sh., Jo'raev T., Alimov R.O'. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.:”Moliya”, 2002.
6. <https://fayllar.org>
7. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
8. [www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)
9. <https://uz.wikipedia.org>
10. <https://lex.uz>

INNOVATIVE  
ACADEMY